



GLOBAL INTERNET TARMOG'IDAGI TIJORAT TRANZAKSIYALARINING HUQUQIY JIHATLARI

Ziyodullayev Nurbek Komiljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi

ziyodullaevnurbek1@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur Annotatsiya: Mazkur tezisda global internet tarmog'i orqali amalga oshiriladigan tijorat tranzaksiyalarining huquqiy tartibga solinishi masalalari chuqur tahlil etiladi. Internet orqali tijorat faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq huquqiy muammolar, jumladan, transchegaraviy shartnomalar, elektron tijorat shartnomalari, raqamli imzolar va blokcheyn texnologiyalarining amaliyotdagi o'rni keng ko'rib chiqiladi. Ilg'or xorijiy tajribalar batafsil o'rganilinadi hamda bu sohadagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq va asosli takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, global internet, raqamli imzo, transchegaraviy shartnomalar, blokcheyn texnologiyasi, huquqiy tartibga solish, xalqaro tijorat huquqi.

Аннотация: Данная тезисная работа посвящена глубокому анализу правового регулирования коммерческих транзакций, осуществляемых через глобальную сеть Интернет. Рассматриваются правовые проблемы, связанные с развитием коммерческой деятельности в Интернете, включая трансграничные контракты, договоры электронной коммерции, цифровые подписи и роль технологий блокчейн в практике. Подробно изучается передовой международный опыт, а также разрабатываются конкретные и обоснованные предложения по устранению недостатков в данной сфере.

Ключевые слова: электронная коммерция, глобальный интернет, цифровая подпись, трансграничные контракты, технология блокчейн, правовое регулирование, международное коммерческое право.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Abstract: This thesis thoroughly analyzes the legal aspects of regulating commercial transactions conducted through the global Internet. It examines legal challenges associated with the development of online commercial activities, including cross-border contracts, electronic commerce agreements, digital signatures, and the practical application of blockchain technology. Advanced international practices are studied in detail, and specific, well-founded recommendations are developed to address shortcomings in this field.

Keywords: electronic commerce, global internet, digital signature, cross-border contracts, blockchain technology, legal regulation, international commercial law.

Kirish

Global internet tarmog'ining keng tarqalishi tijorat sohasini tubdan o'zgartirib yubordi. An'anaviy tijorat shakllarining o'rniga elektron tijorat tobora keng yoyilmoqda va transchegaraviy savdo munosabatlarining hajmi oshib bormoqda. Bunday sharoitda tijorat tranzaksiyalarini huquqiy tartibga solish dolzarbligi ortadi. Xalqaro miqyosda elektron tijorat sohasidagi huquqiy me'yorlar yagona standartlarga ega emasligi sababli, milliy qonunchiliklarni uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada xalqaro huquqiy hujjatlar va ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish dolzarbligini oshirmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, solishtirma-huquqiy tahlil va normativ-huquqiy metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, xalqaro shartnomalar, BMT savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) tavsiyalari va Yevropa Ittifoqi (eIDAS) standartlari asosida xalqaro tajriba batafsil o'rganilgan. O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro huquqiy hujjatlar qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

Elektron tijoratning huquqiy asoslari BMT tomonidan ishlab chiqilgan UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce bilan belgilab berilgan bo'lib, ko'pgina mamlakatlar ushbu hujjatga asoslangan holda o'z qonunchiliklarini shakllantirgan. O'zbekistonda ham elektron tijorat "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun bilan



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

tartibga solinadi. Lekin amaliyotda transchegaraviy tranzaksiyalarni amalga oshirish jarayonida qator muammolar mavjud. Xususan, elektron shartnomalarning huquqiy kuchi, raqamli imzolarni tan olish va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishda aniq me'yorlarning yetishmasligi kuzatilayotganligi namayob bo'lmoqda¹."

Elektron tijorat shartnomalari va raqamli imzo elektron tijorat shartnomalari xalqaro huquqda elektron shaklda tuzilgan shartnomalar sifatida tan olinadi. Ammo shartnomalarning haqiqiyliigi, raqamli imzolarning huquqiy maqomini belgilashda davlatlararo yondashuvlarda farqlar mavjud. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2014-yil 23-iyuldagi 910/2014-sonli reglamenti — elektron identifikatsiya va ishonchli xizmatlar (eIDAS) elektron identifikatsiya va ishonchli xizmatlar sohasida yagona standartni joriy etgan bo'lib, ayniqsa raqamli imzolarning yuridik maqomini aniq belgilaydi. Mazkur reglamentning 52-moddasida qayd etilishicha, "kvalifikatsiyalangan elektron imzo qo'l bilan qo'yilgan imzo bilan bir xil huquqiy kuchga ega"²

Amaliyotda bu me'yor Yevropa hududida elektron shakldagi shartnomalarni qog'ozdagi an'anaviy shartnomalarga tenglashtirish imkonini beradi. Masalan, Germaniya va Fransiya o'rtasidagi transchegaraviy xizmat ko'rsatish shartnomasida tomonlar o'zaro kelishuvni kvalifikatsiyalangan elektron imzolar orqali tasdiqlashgan bo'lsa, ushbu shartnoma har ikkala davlat qonunchiligi nuqtai nazaridan to'liq yuridik kuchga ega hisoblanadi. Bu esa elektron imzolar xalqaro savdo munosabatlarida ishonchli va tan olingan huquqiy vosita sifatida qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Italiya va Ispaniya o'rtasidagi shartnoma raqamli imzo bilan tasdiqlansa, u ikkala davlatda ham qonuniy hisoblanadi. AQShda Electronic Signatures in Global and National Commerce Act raqamli imzolarni tan oladi, lekin shtatlar o'rtasida qoidalar farq qilishi mumkin. Hindistonda 2000-yilda qabul qilingan Information Technology Act raqamli imzolarni qo'llab-quvvatlaydi, ammo ularning xalqaro tan olinishi cheklangan.

¹ Электронная коммерция : учеб. пособие / авт.-сост. М. М. Мархайчук ; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. –Изд. 2-е, перераб. и доп. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2021. – 16 с.

² <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32014R0910>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti raqamli imzolarni tan olish va ularning huquqiy maqomini aniq belgilagan bo‘lib, xalqaro amaliyot uchun namuna bo‘la oladi.

Blokcheyn texnologiyalari global tijorat tranzaksiyalarida shaffoflik va xavfsizlikni ta‘minlash uchun katta imkoniyatlarga ega. Ammo “blokcheyn asosidagi tranzaksiyalarni qonunchilik darajasida tartibga solish mexanizmlari ko‘plab mamlakatlarda to‘liq shakllanmagan. Blokcheyn asosida tuzilgan smart shartnomalarning huquqiy kuchini tan olish mexanizmlari xalqaro huquqda hali ham noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda³”. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyalarini joriy qilishda me‘yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish muhim masaladir.

Blokcheyn texnologiyalari tijorat tranzaksiyalarida shaffoflik va xavfsizlikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, smart shartnomalar – blokcheyn asosida avtomatlashtirilgan shartnomalar – kelajakda katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Biroq, ularning huquqiy maqomi ko‘p davlatlarda aniq emas. Agar smart shartnoma orqali tranzaksiyada nizo yuzaga kelsa, sudda uni qanday baholash noaniq bo‘lib qoladi. Xalqaro tajribada blokcheynni tartibga solishda ilg‘or davlatlar mavjud: Shveysariya 2021-yilda blokcheyn asosidagi tranzaksiyalar uchun maxsus qonun qabul qildi, bu qonun blokcheynda saqlangan aktivlarni mulk huquqi ob‘ekti sifatida tan oladi. Estoniya blokcheynni davlat boshqaruvida, masalan, sog‘liqni saqlash va sud tizimlarida qo‘llaydi. Ammo ko‘p davlatlarda blokcheyn uchun maxsus qonunchilik yo‘q. Masalan, AQShda bu masalani shtatlar darajasida tartibga solish tufayli yagona yondashuv mavjud emas. Xitoyda blokcheyn davlat nazorati ostida rivojlanmoqda, lekin huquqiy asoslar yetarli emas.

Transchegaraviy shartnomalar xalqaro savdoning muhim qismidir. Ular turli “yurisdiksiyalarda tuzilganligi sababli, huquqiy tartibga solishda qiyinchiliklar mavjud. Bu masalani hal qilish uchun xalqaro huquqda United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods qabul qilingan bo‘lib, u 90 dan ortiq davlat tomonidan qo‘llaniladi⁴”. Biroq, u elektron shartnomalarga to‘liq mos emas. UNCITRALning 2005-yilgi konvensiyasi elektron shartnomalar uchun zamonaviy

³ https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/pdf/2024/31/e3sconf_iccsei2023_01010.pdf

⁴ United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods (CISG), 1980.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

yechim taklif etadi, lekin unga a'zo davlatlar soni cheklangan. Transchegaraviy shartnomalarda nizolar yuzaga kelganda, qaysi davlat sudi ishni ko'rishi masalasi noaniq bo'lib qoladi. Buning uchun xalqaro arbitraj institutlari, masalan, International Chamber of Commerce (ICC) yoki London Court of International Arbitration (LCIA), keng qo'llaniladi. Bu institutlar neytral va professional yechimlar taklif etadi.

Xulosa va takliflar

Global internet tarmog'idagi tijorat tranzaksiyalari zamonaviy iqtisodiyotning muhim qismiga aylandi, ammo ularni huquqiy tartibga solish davlatlar o'rtasidagi farqli yondashuvlar va texnologik rivojlanishning tez sur'atlari tufayli murakkab bo'lib qolmoqda. Elektron tijorat shartnomalari BMTning 1996-yilda qabul qilingan UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce va 2005-yilgi Konvensiyasi asosida qonuniy deb tan olinadi, lekin davlatlar o'rtasidagi huquqiy farqlar tufayli shartnomalarning tuzilish vaqti va joyini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Raqamli imzolar Yevropa Ittifoqining eIDAS Regulation (No. 910/2014) kabi hujjatlar orqali qonuniy kuchga ega bo'lsa-da, ularning xalqaro tan olinishi cheklangan va o'zaro kelishuvlarni talab qiladi. Blokcheyn texnologiyalari shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega, ammo smart shartnomalar va blokcheyn aktivlarining huquqiy maqomi ko'p mamlakatlarda hali aniq emas. Shveysariya va Estoniya kabi davlatlar bu sohada ilg'or bo'lsa-da, global miqyosda yagona qonunchilik yetishmaydi. Transchegaraviy shartnomalar 1980-yildagi CISG va xalqaro arbitraj institutlari (ICC, LCIA) orqali tartibga solinadi, lekin elektron shartnomalar uchun zamonaviy yechimlar zarur. Xalqaro tajribalar, masalan, Estoniyaning "e-Residency", Shveysariyaning "Crypto Valley" va Singapur Smart Nation tashabbuslari raqamli savdoda muvaffaqiyatli yondashuvlarni ko'rsatadi. Global tijorat tranzaksiyalarini muvaffaqiyatli tartibga solish uchun yagona xalqaro standartlar ishlab chiqish, raqamli imzolarni o'zaro tan olishni kuchaytirish, blokcheyn uchun huquqiy asoslar yaratish va xalqaro arbitraj institutlarining rolini oshirish zarur. Ushbu choralar global raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce, 1996.
<https://uncitral.un.org/en/model-laws/e-commerce>
2. Regulation (EU) No 910/2014 (eIDAS Regulation). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2014/910/oj>
3. S. Gulyamov, E3S Web of Conferences. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/pdf/2024/31/e3sconf_iccsei2023_01010.pdf
4. Directive 2000/31/EC, European Parliament and Council, 2000, <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32000L0031>
5. Савельев А. И. Электронная коммерция в России и за рубежом: правовое регулирование / А. И. Савельев — «Статут», 2016, 160ст
6. UNCITRAL Model Law on Electronic Signatures, 2001.
7. UNCITRAL Recommendations on Electronic Signatures, 2021, https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/recommendations/electronic_signatures
8. United Nations Convention on Contracts for the International Sale of Goods (CISG), 1980.